

3-QISM

MISOL : Erigan moddaning massa ulushi 1% bo'lgan 200 g eritma, shunday moddadan 4% bo'lgan 50 g eritma bilan aralashtirilganda, xosil bo'lgan eritmadagi erigan moddaning massa ulushini (%) toping.

a) 1,5 b) 1,6 c) 1,4 d) 1,0 e) 2,0

YECHIM:
$$\frac{C_1 \cdot m_1 + C_2 \cdot m_2}{m_1 + m_2} = \frac{1 \cdot 200 + 4 \cdot 50}{200 + 50} = 1,6\%$$

- O'yuvchi natriyning 200 g 40% li va 300 g 20% li eritmalari o'zaro aralashtirilganda, eritmaning foiz konsentratsiyasi qanday bo'lishini aniqlang. a) 30 b) 25 c) 28 d) 32 e) 35
- 100 g 5% li va 250 g 10% li eritmalar aralashtirilganda hosil bo'lgan eritmadagi tuzning massa ulushini (%) aniqlang. a) 8,6 b) 3,2 c) 10,1 d) 5,5 e) 7,3
- 300 g 12% li va 200 g 3% li eritmalar aralashtirilganda hosil bo'lgan eritmadagi tuzning massa ulushini (%) hisoblang. a) 2,0 b) 6,1 c) 7,3 d) 8,4 e) 12,7
- Bir moddaning 100 g 20% li eritmasi bilan shu moddaning 50 g 10% li eritmasi aralashtirildi. Xosil qilingan eritmadagi moddaning massa ulushini (%) aniqlang. a) 16,6 b) 8,4 c) 10,6 d) 14,5 e) 20,4
- Massa ulushi 0,04 bo'lgan osh tuzi eritmasining 200 g miqdoriga massa ulushi 0,08 bo'lgan eritmasidan 300 g qo'shildi. Eritmadagi osh tuzining massa ulushini (%) toping. a) 4,28 b) 3,32 c) 32,82 d) 6,40 e) 6,29
- Massa ulushi 0,2 bo'lgan kaliy nitratning 200 g eritmasi bilan massa ulushi 0,15 bo'lgan 500 g eritmasi aralashtirildi. Eritmaning massa ulushini (%) toping. a) 0,40 b) 0,16 c) 0,17 d) 0,26 e) 0,56
- Nitrat kislotaning 40% li 400g eritmasiga 1200 g 70% li sulfat kislotasi eritmasi qo'shildi. Xosil bo'lgan eritmadagi xar bir kislotaning massa ulushini (%) toping. a) 17,5;45,5 b) 47,5;52,5 c) 10;52,5 d) 35,2;16,8 e) 41,4;21,6
- O'yuvchi kaliyning 20% li 600 g eritmasiga o'yuvchi natriyning 40% li eritmasidan 200 g qo'shildi. Xosil bo'lgan eritma 1200 g suv bilan suyultirilgan bo'lsa, har bir ishqorning massa ulushini (%) toping. a) 6,7;5,7 b) 7,6;7,5 c) 6;4 d) 12,5;13,5 e) 16,5;17,5
- Natriy gidroksidning 40% li 200 ml ($\rho=1,43$ g/ml) va 10% li 300 ml eritmalari ($\rho=1,1$ g/ml) aralashtirildi. Xosil bo'lgan eritmaning konsentratsiyasini (%) toping. a) 26 b) 16 c) 24 d) 36 e) 30
- 355 ml 30% li KOH eritmasiga ($\rho=1,282$ g/ml) 0,5 l 10% li KOH eritmasi ($\rho=1,09$ g/ml) qo'yilganda hosil bo'lgan eritmadagi KOH ning massa ulushi (%) nechaga teng bo'ladi? a) 16,7 b) 19,1 c) 23,4 d) 32,5 e) 34,8
- Nitrat kislotaning 10 ml 10% li eritmasi ($\rho=1,056$ g/ml) bilan 100 ml 30% li eritmasi ($\rho=1,184$ g/ml) o'zaro aralashtirilishidan hosil

- bo'lgan yangi eritmada kislotaning foiz konsentratsiyasi qancha bo'ladi? a) 22,46 b) 26,32 c) 28,36 d) 32,15 e) 24,08
- Nitrat kislotaning 30% li 500 g eritmasiga 300 g 40% li sulfat kislotasi eritmasi va 200 g suv qo'shildi. Xosil bo'lgan eritmadagi xar bir kislotaning massa ulushini (%) toping. a) 65,35 b) 45;15,5 c) 15,12 d) 25,4;26 e) 21,4;24
- Massalari 1,5 kg bo'lgan 20% li va 0,5 kg bo'lgan 2% li eritmalaridan foydalanib 10% li eritmadan eng ko'pi bilan qancha massadagi (g) eritma tayyorlash mumkin? a) 3100 b) 3000 c) 2750 d) 3250 e) 3450
- Natriy gidroksidning massa ulushi 10% bo'lgan eritmasidan tayyorlash uchun 180 ml suvga 25% li NaOH eritmasi ($\rho=1,2$ g/ml) dan necha ml qo'shish kerak? a) 50 b) 80 c) 100 d) 120 e) 150
- Labaratoriyada NaOH ning massa ulushi 30%, zichligi 1,33 g/ml bo'lgan eritmasi bor. Shu eritmadan massa ulushi 14% zichligi 1,15 g/ml bo'lgan 250 ml hajmli eritma tayyorlash uchun boshlang'ich eritmadan qancha ml olish kerak? a) 100,9 b) 96,2 c) 104,5 d) 110,4 e) 115,2
- 30% li NaOH eritmasining necha g dan 5 kg 1% li eritma tayyorlash mumkin? a) 120,5 b) 166,7 c) 62,3 d) 150 e) 246,1